



**BÅŞKENT
UNIVERSITY**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2024-yil 19-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI
VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 19-oktabr

Toshkent – 2024

**UNDOV SO‘ZLARNING DEYKTIK XUSUSIYATI
(TURLI TIZIMLI TILLAR MISOLIDA)**

**THE EXCLAMATORY WORD IS A DEICTIC PROPERTY OF WORD.
(USING THE EXAMPLE OF DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES)**

Gulchehra Umurzakova Egamberdievna

Doktorant,

O‘zbekiston Milliy universiteti

gulidil425@gmail.com

Annotatsiya: *Undov so‘zlar matnni semantik jihatdan murakkablashtirish xususiyatiga ham ega. Bunday vaqtda matn sintaktik strukturasi birdan ortiq axborot siqiq tarzda aks etadi. Matnda ifodalangan axborotlardan biri ochiq, boshqasi undov so‘zning presuppozitsiyasi sifatida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Undov so‘zning presuppozitsiyaga ishorasi natijasida matn axborotlarga boy bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *undov, axborot, sintaktik struktura, presuppozitsiya, pragmatik xususiyat.*

Annotation: *Exclamatory words also have the feature of semantically complicating the text. At this time, more than one information is densely reflected in the syntactic structure of the text. One of the information expressed in the text is revealed openly, and the other is hidden as a presupposition of the exclamation. As a result of the exclamation pointing to the presupposition, the text is rich in information.*

Keywords: *exclamation, information, syntactic structure, presupposition, pragmatic text, linguistics, deictic.*

Bugungi kunda tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlarini o‘rganish va tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Shu o‘rinda Prezidentimizning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak va ma‘naviy salohiyatiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bolib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilmoqda”, - nutqini keltirib o‘tmoqchimiz. Darhaqiqat, har qanday sohada yuksalish, ilmiy-tadqiqot ish olib borish, ya‘ni yangilik kiritish uchun barcha shart-sharoitlar keng yaratilib berilgan. [Mirziyoyev Sh..M.,2016:14]

Tilshunoslikning yirik namoyondalaridan bo‘lgan J.Lakoff hamda polyak tilshunosi A.Vejbitskayalar tilning belgi sifatidagi maqomiga yangicha nuqtai nazar bilan qarashni taqozo etuvchi yo‘nalish sifatida jahon tilshunosligida muhim o‘rin tutadi. So‘z tushunchani ifodalovchi oddiy belgigina emas, o‘zida muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlarini ham aks ettiruvchi birlik ekanligi ushbu qarashning asosiy tamoyillaridan biridir. [Xudoyberganova D.,2014:48]. Tildagi

undovlar (*oh, voy* kabilar) ham nointensional belgilardir. D.P.Gorskiy belgilarni ikki katta guruhga ajratadi:

1) o'zlari ifodalayotgan narsalar bilan sababiy yoki determinative bog'lanishga ega bo'lgan belgilar;

2) o'zlari bog'lanayotgan narsalar bilan determinative bog'lanishga ega bo'lmagan belgilar. [Горский Д.П., 1963:14]

Yu.S. Maslov shunday ta'rif beradi: "Belgi-bu idrok qilinadigan narsa bo'lib, idrok qiluvchiga o'zi haqida va ushbu belgidan tashqari bo'lgan boshqa narsa haqida ma'lumot beruvchi vositadir" [Nurmonov A., 2006:182]

V.Z.Panfilov belgining quyidagi keng qamrovli aniqlanishini ma'qul ko'radi: "Belgi moddiy his qilinadigan predmet (voqea, hodisa, harakat) bo'lib, u bilish va kishilar muloqotida boshqa predmet yoki predmetlarning xususiyatlari, munosabatlarning vakillari sifatida namoyon bo'ladi, hamda xabarlarga yoki ularning komponentlariga ega bo'lish va yuborish (informatsia, bilim) uchun foydalaniladi.[Панфилов В.З ,1977:3] Belgi o'z referentini ifodalaydigina emas, balki uni tavsiflaydi (unga xarakteristika beradi) hamda turli belgi sistemalarining shakillantirilishi, qayta ishlanishida referentning doimiy vakili sifatida ishtirok etadi.

– Ой, я так беспокоилась! Думала, тетрадка выпала, когда мы с Шимоном ехали на мотоцикле. Сегодня я пешком прошла весь путь. Искала даже в кустах и урнах. Но ее нигде не было. Вы мой спаситель, – прошептала она, коснувшись губами его уха. – Я уж боялась, что не найду ее...

– Ой, простите... Я совсем сошла с ума. – Нервным движением она поправила волосы.

– Спасибо. Нет, правда, огромное спасибо, – тихо произнесла она. – Я пойду. (Януш Вишневский «Повторение судьбы»)

Misol taxlili suhbatdoshlarning xarakteriga mos va muloqotning emotsional xolatini ko'rsatadi. *Ой, я так беспокоилась!*, *Ой, простите*, undov so'zi kuchli ajablanishni anglatadi.

Tilshunoslikda kishilar, hayvon va parrandalarni chaqirish, haydash, ish-harakatni bajartirishga undash kabilarni anglatuvchi so'zlar buyruq-xitob undovlari sifatida ajratiladi. Bunday undovlarga: **o'zbek tilida** *ey, hov, vey, hoy, hay, hey, o'v, huv, kisht, pisht, cho'*; *qurey-qurey kabilar*; **ingliz tilida** *bow, wow, oink-oink, hey, hello anybody, hey you*; **rus tilida** *эй, эге, а, ай, ау, ах, ба, брр, на, ну, но, о, ого, ой, ох, тпру, тьфу, у, увы, улю-лю, уф, фи, фу, ха, цыц, эй, эх*; undovlari

Ba'zi undovlar tuzilishiga ko'ra hech qaysi so'z turkumlari bilan bog'lanmagan alohida ma'no ifodalaydi va tuzilishiga ko'ra mustaqil ma'no ifoda etgan *батюшки, боже, господи, брось, будет, подумаешь* undovlarga kabilar kiritiladi. Tilshunoslikda *salomlashuv, xayrlashuv, minnatdorchilik, tashakkur, taklif, tahsin* kabilarni ifoda etishda qo'llanuvchi *salom, assalomu alaykum, xayr, rahmat, tashakkur, marhamat, shukur, qulluq, balli, ofarin, pruzem, здравствуйте, до свидания, честь имею* kabi nutqiy etiket birliklari ham undov so'zlar sifatida ajratiladi. Biz ham bunday birliklarni an'anaviy tarzda buyruq-xitob undovlari sifatida o'rganamiz.

Buyruq-xitob undovlari kishilarga nisbatan murojaatni ifodalab kelganda, shaxs deysisini yuzaga keltiradi. Mazkur undov so'larning deysitik xususiyati kontekst ichida reallashadi. Masalan:

1. – *Hov!* – *dadamning tahdidli ovozi eshitib, burilib qaradim-u, qo'rqib ketdim. Uning yuzida boyagi yalinchoq ifodadan asar ham qolmagan, ko'zi g'azabdan chaqnar edi.* (O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari»)

2. – *U jimib qoldi. – Menga o'rgatma, o'v!* – *deydi ko'zlari g'azabdan yonib.* (O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari»)

3. – *Эй, отоприте, кто там?* (Островский. «Свои люди - сочтемся»²⁴)

4. – *Эй, музыканты, играйте, я желаю вас слушать.* (Чехов «Вишневый сад»)

5. – *Эй, ты! Я тебя знаю.*

Коренастый, бритоголовый, черная щетина на щеках — мы никогда его прежде не видели. Его злобная ухмылка испугала меня.

— *Не обращай внимания, — шепнул я Хасану. — Не останавливайся.*

— *Ты! Хазара! Я с тобой говорю! Ну-ка, посмотри на меня! — рывкнул солдат, передал сигарету соседу, поднял руки, чтобы всем было видно, и принялся совать палец в кулак.* (Халед Хусейни «Бегущий за ветром»)

6. *Kept knocking and pushing him in the back all the way to the car.*

“Hey! Why for you gots to put cuffs on me? I ain't done nothing.”

“Shut up,” said Lizard and pushed him harder. .. (Clarence Major. «Dirty bird blues»)

Berilgan parchalarda qo'llangan *hov*, *o'v* undov so'zlari shaxslarga ishora qilgan. Bu matn avvalida berilgan jumla asosida ma'lum bo'ladi. Ushbu undov so'zlar deysitik vazifa bajarish bilan birga, so'zlovchining salbiy baho munosabatini ham namoyish qilgan. Umuman, bu turdagi buyruq-xitob undovlarida salbiy baho yorqin aks etadi.

Manbalarda bu turdagi undov so'zlarning undalma vazifasida kelib, shaxsga murojaatni ifoda etishi qayd etiladi. Ammo ularning undalma vazifasida kelishi natijasida deysitik vazifa bajarishi haqida fikr yuritilmagan.

1. – *“Bill Walker,” she said. He stopped. At first he did not recognize her, to him she looked so old.*

– *“Mary! Where did you come from?”* (« Early Autumn» Langston Hughes.)

2. – *Товарищ! — заорал Бендер. — Вы! Вы! Толстенький! Которому художник нужен!* (Илья Ильф, Евгений Петров “Двенадцать стульев”)

Ba'zan bu turdagi undov so'zlar undalma bilan birga qo'llanadi. Bunday vaziyatda shaxsga murojaat ma'nosi yanada kuchayadi. O'zbek olimi A.G'ulomov bu haqda fikr yuritar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Undashni kuchli ifodalash uchun undalmaning oldidan *hoy*, *hov*, *hey*, *ey* kabi undov so'zlar ham keladi... Ba'zan undalmaning o'zi aytilmay, tinglovchining diqqatini tortish uchun undov so'zning o'zi qo'llanadi: «*Hoy* (dadas), *qayoqqa ketyapsiz?*» [Фуломов A.1987:151] Albatta, keyingi holatda undov so'z zimmasiga shaxsga ishora qilish vazifasi yuklatiladi.

– *Hov, olifta!* – dedi yana o'sha tahdidli ohangda. – *Tur o'rningdan!* – *Hov!* – dedi yana o'sha tahdidli ohangda. – *Tur o'rningdan!* (O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari»)

O'zbek milliy madaniyatida *ey, hov, hoy, hay, hey, huv* kabi buyruq-xitob undovlarining erning xotiniga yoki xotinning eriga murojaatini ifoda etishda qo'llanishi ham kuzatiladi. Bunday qo'llanish ba'zan milliy udum, nutqiy odatlar bilan bog'lansa, ba'zan nutq subyektining «muomala madaniyati» bilan aloqador bo'ladi. O'zbek madaniyatida qadimda er va xotinning biri-biriga ismini aytib murojaat qilishi odob-axloqqa zid hisoblangan. Shu bois er xotiniga bosh qiz farzandining ismi bilan, xotini esa eriga bosh o'g'il farzandining ismi bilan murojaat qilishgan. Oilada farzand tug'ilmagan bo'lsa, er va xotin bir-biriga murojaat qilishda *ey, hov, hoy, hay, hey, huv* kabi buyruq-xitob undovlaridan foydalanishgan. Bu kabi odatlar hozirgi kunda ham ayrim hududlarda uchrab turadi. Buyruq-xitob undovlarining bu vazifada qo'llanishda ham deydik xususiyati namoyon bo'ladi. Masalan, «*Er xotiniga qarab: – Ey, ovqat-povqating bormi? – deb so'radi*» gapida qo'llangan *ey* undov so'zi shaxs deyxsisini hosil qilgan.

Demak, nutq egasining shaxsga murojaat qilishda uning nomini aytmay, *ey, hov, hoy, hay, hey, huv* undovlaridan birini qo'llashida har doim ham salbiy munosabat anglashavermaydi.

Ingliz va rus madaniyatida esa o'zbek madaniyatidan farqli tarzda *spouse (rafiqa), my dear (sevgilim), joy (quvonchim), jewel (boyligim), love (muhabbatim), sweet heart (shirin qalbm), дорога, любимая, солнце моё, сердце моё* kabi *wife (xotin), жена* so'zlarining o'rmini bosuvchi, unga ishora qiluvchi birliklar qo'llaniladi. Quyidagi Villiam Kongriv asarida er-xotin monologi misolda buni juda yorqin namoyish qiladi (garchi erka va tantiq asar qahramoni ularning ustidan kulayotgan bo'lsa ham):

1. Millamant. – *And d'ye hear, I won't be called names after I'm married; positively I won't be called names.*

Mirabell. *Names!*

Millamant. *Ay, as "wife," "spouse," "my dear," "joy," "jewel," "love," "sweet-heart," and the rest of that nauseous cant, in which men and their wives are so fulsomely familiar—I shall never bear that.* (Congreve. «The Way of the World»)

(Milamant. *Bilasanmi, turmushga chiqqanimdan keyin xar hil ismlar bilan chaqirilishni istamayman, qatiy ismlar bilan chaqirilmayman.*

Mirabel. *Ismlar!* (taajjubda)

Milamant. *Ey, xotin, kelin, jonim, quvonchim, munchog'im, sevgim, suyuqligim va boshqa bir qancha jirkanch, samimiy bo'lmagan, faqat er-xotingga ayon ikkiyuzlamachilik bilan murojaat qiladigan ismlarni aytyapman. – Hech qabul qilolmayman.* (Uilliam Kongriv. «Hayot shunday »)

2. *That was their style. Now they walked the sidewalk and beat heads. "Okay, Big Boy," Bullfrog said. "What's going on here?"* (Clarence Major. «Dirty bird blues»)

Tilda buyruq-xitob undovlarining asosiy qismini hayvon va parrandalarga nisbatan haydash, chaqirishda qo'llaniladigan undov so'zlari tashkil qiladi. Bu turga o'zbek tilida *pisht, kisht, beh-beh, tu-tu, chu, cho', qurey-qurey, ma* kabilar; ingliz tilida *baa, bow wow, quack, moo, meow, wuff, oink, cock-a-doodle-doo, cuckoo, coo, tweet, chirp, chirrup* kabilar; rus tilida *баа, гав-гав, чик-чик, тюн-тюн хлюп-хлюп, хрун, шлен, квак, бульк* undov so'zlari kiradi.

Bu turga mansub undov so'zlar deytik xususiyati bilan ajralib turadi.
Masalan:

1. «*Ту-ту-ту*», – *зудело в трубке.*
2. *The horse's hooves clip-clopped on the cobblestones.*
3. *Хор с усилением загремел, как сквозь подушку: та-та-та, та-та-та, та-та-та, то-ро-ром, ту-ру-рум, ту-ру-рум...* (Двенадцать стульев. Евгений Петров и Илья Ильф.)
4. *Wop! Wop! Wop! went a volley of musketry on the rear face of the north hill.* (Indian tales. Rudyard Kipling.)

Xulosa. Undov so'zlar nutqda quyidagi pragmatik xususiyatlarga ega bo'ladi:

- a) baho munosabatini ifodalaydi;
- b) turli presuppozitsiyalarga ishora qiladi;
- v) deytik vazifa bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016
2. D.Xudoyberganova. Matnning antropotsentrik tadqiqoti. – Toshkent, 2014.
3. Lutfullayeva D. Davlatova R. O'zbek muloqot matnining dialektik birliklari. – Toshkent, 2013
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.
5. www.nuqf.intal.uz
6. www.ziyonet.uz

KOGNITIV TILSHUNOSLIK YO'NALISHINING SHAKLLANISHI FORMATION OF THE DIRECTION OF COGNITIVE LINGUISTICS

Yusupova Aziza Muhiddin qizi
Tayanch doktorant,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU,
azizaxonyusupova1996@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada amaliy tilshunoslikda lingvokognitiv yo'nalishining ahamiyati, shakllanishi, taraqqiyoti, uning turlari va nutqiy aloqadagi o'rni, vazifalari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, kognitiv*

<i>Karimjonova Sh.</i>	Kauzativlikning tilshunoslikda o'rganilishi	96
<i>Azimova S.</i> <i>Obidova S.</i>	Tarjima transformatsiyalari va ularning turlari	101
<i>Shodieva G.</i> <i>Dusmatov K.</i>	Problems of classification of the parts of speech in uzbek language	105
<i>Tillabayeva Z.</i>	O'zbek tilining qarluq lahjasi yuzasidan mulohazalar	108
<i>Pardayeva I.</i>	Zargarlik zeb-ziynat buyumlarini tayyorlash jarayoniga aloqador terminlar	112
<i>Eshboyeva F.</i>	Pragmatikaning taraqqiyot bosqichlari xususida	115
<i>Ravshanova F.</i>	Sotsiolingvistikaning shakllanish tarixi	119
<i>Ergasheva N.</i>	Toponimlarining topomorfologik va lingvistik tahlili	128
<i>Botirova M.</i>	O'zbek tili reklama matnlarida fe'l so'z turkumi ifodasi	131
<i>Raximova K.</i> <i>Baltabayeva M.</i> <i>Axmadaliyeva M.</i>	O'zbek tilining nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish	134
<i>Sultanova D.</i>	Лингвостилистические особенности метафоры в узбекском языке	137
<i>Obilov M.</i>	Dichotomy of the meanings of objective and subjective modality	143
<i>Beysenov K.</i>	O'zbek tilshunosligining tarixiy ildizlari	152
<i>G'apporov B.</i>	Kollokatsiyalarning lisoniy maqomi	156
<i>Dushatova Sh.</i>	Thematic classification of euphemisms that express mysterious concepts	161
<i>Hamraqulova G.</i>	O'zbek tilidagi fonopoetik vositalar va ularni tasniflash masalasi	164
<i>Beysenov K.</i> <i>Otaev O'.</i>	Tilshunoslikning grammatik davri	169
<i>Mahkamova D.</i>	Terminologiya modernizatsiyalashuviga ekstrolingvistik omillar ta'siri	173
<i>Fatima H.</i>	Specific features of the American version of the British Language	176
<i>Davronova Z.</i>	Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida qo'llangan antroponimlarning kognitiv-semantik tahlili	179
<i>Rahmatova F.</i>	Tana a'zolari nomlarida polisemiya	182
<i>Umurzakova G.</i>	Undov so'zlarning deytik xususiyati (turli tizimli tillar misolida)	188
<i>Yusupova A.</i>	Kognitiv tilshunoslik yo'nalishining shakllanishi	192
<i>Xolmirzayev J.</i>	"Qunduz bilan Yulduz" dostonida leksik dialektizmlarning qo'llanilish xususiyatlari	197